



Janni  
Rodari

---

# Jelsomino Yolg'onchilar mamlakatida



**YANIGI ASR AVLODI**  
TOSHKENT  
2015

**UO'K: 821.512.133**

**KBK: 84(4Ital)**

**R – 65**

**Rodari, Janni**

Jelsomino Yolg'onchilar mamlakatida: ertaklar/Janni Rodari. Tarjimon: Ahmad A'zam. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – 336 b.

ISBN 978-9943-27-237-8

Chippolinoning g'aroyib sarguzashtlari, u ko'rsatgan jasorat va mardliklar esingizda bo'lsa kerak. Mana, siz o'sha ajoyib voqealar muallifi, italyan adibi Janni Rodari bilan yana bir bor uchrashyapsiz. Bu kitobda uning «Uch xotimali ertaklar» va «Jelsomino Yolg'onchilar mamlakatida» asarlari bilan tanishasiz. «Uch xotimali ertaklar»da voqea ma'lum nuqtagacha bayon qilinadi-da, so'ng u uch xil yakunlanadi. Agar siz topag'onlik qilib, bu ertaklarni boshqacharoq yakunlasangiz va uni o'rtoqlaringizga, ukalaringizga aytib bersangiz yanada yaxshi.

Qiziqarli voqealardan iborat kitob sizga muntazir!


**UO'K: 821.512.133**

**KBK: 84(4Ital)**

**Ruschadan  
AHMAD A'ZAM  
tarjimasi**

ISBN 978-9943-27-237-8

© Janni Rodari, «Jelsomino Yolg'onchilar mamlakati-da». «Yangi asr avlodi», 2015-yil.



# Uch xotimali ertaklar



## TILSIMLI NOG'ORA

Urushda yurgan bir nog'orachi askarga javob tegib, uyiga qaytayotgan ekan. Bechora juda kambag'al bo'lib, bor-yo'q davlati ham shu nog'orasi ekan. Lekin o'zining kayfiyati zo'r, uyini shuncha yildan beri ko'rmay rosa sog'ingan, endi, mana, o'sha qadrdon kulbasiga sog'-salomat qaytayotganiga juda xursand ekan. Shuning uchun ham nog'orasini shavq bilan taqirlatadi, nog'ora tovushi: «Tam-taka-tum!», «Tak-kra-tak!» deb uzoq-uzoqlarga taraladi.

Nog'orachi shu tarzda yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib ketayotgan ekan, oldidan bir kampir chiqib qolibdi.

– E-e, shovvoz askartoy! Cho'ntagingdan menga atalgan bir soldo<sup>1</sup> chiqib qolmasmikan?

– Jonim bilan, buvijon! Bir emas, ikki soldo, hatto hovuchlab ham berardim-a, faqat yo'q-da o'sha pul.

– Aldayotgan bo'lma tag'in?

– Rost aytyapman. Ertalab cho'ntaklarimni tit-pit qilib, sariq chaqa ham topolmadim.

– Yana bir qarab ko'r-chi, topilib qolar.

– Cho'ntagimdan-a?.. Mayli, ishonmasangiz... qarab ko'ray. Lekin, bilamanki... Iya, bu nima ekan?

– Pul-da! Bir soldo. Ana, bor ekanmi?

---

<sup>1</sup> Soldo – chaqa pul.



– O'lay agar, borligini bilmasdim! Ja g'ala-ti bo'ldi-yu! Oling, buvijon, sizga nasib qilgan ekan. Menga qaraganda sizga zarilroq ko'rinadi.

– Ko'p yasha, askartoy! – deb kampir uni alqabdi. – Endi men ham senga bir yaxshilik qilay. Pulingning o'rniga bir narsa beraman.

– E-e, yo'g'-e, ovora bo'lmang. Hech narsangiz kerak emas.

– Senga kichkina bir tilsim sovg'a qilay, xo'pmi? Yaxshilab eshit. Bundan keyin nog'orangni chalganing zahoti atrofingdagi hamma narsa o'yinga tushib ketadi.

– Ja alomat tilsimga o'xshaydi-ya! Rahmat, buvijon!

– Shoshma, oxirigacha eshit-da: nog'ora chalishni to'xtatmaguningcha odamlar ham o'yindan to'xtamaydi.

– Qoyil! Faqat bu sovg'angizni nimaga ishlatishni bilmayapman. Ha, mayli, asqatib qolar.

– Shunday asqatsinki!

– Xayr, buvijon!

– Yaxshi bor, askartoy!

Nog'orachi uyini ko'zlab yana yo'lga tushibdi. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib borayotgan ekan, chakalakzordan lop etib uchta qaroqchi chiqib, yo'lini to'sibdi.

– Jon shirinmi, mol shirin?!

– Uh, yuragim chiqib ketdi... Xudo haqi, mana, xaltamni olinglar. Faqat ichida... shimildiriq ham yo'q.

– Qo'lingni ko'tar, bo'lmasa, otib tashlaymiz!

– Jonim bilan, muhtaram qaroqchilar.

– Pulni qayga bekitding?



– O’sha pul bo’lsa, telpaginga yashirardim-ov.

Qaroqchilar uning telpagini ko’rishibdi – hech vaqo yo’q.

– Qulog’ingga yashirgan bo’lma tag’in?

Qaroqchilar uning qulog’ini ham ko’rishibdi – hech vaqo yo’q.

– O’sha pul bo’lsa, burnimning uchiga yashirardim-ov.

Qaroqchilar nog’orachining hamma yog’ini tit-pit qilibdilar – befoyda, o’zi yo’q pulni qaydan ham topsinlar...

– Qip-qizil och-gadoy ekansan-ku! – deb zarda qilibdi qaroqchilar sardori. – Mayli, quruq qaytmaylik, nog’orangni olamiz. Har zamonda ko’ngil ochishga yarab qolar.

– Mayli, – debdi noiloj nog’orachi. – O’rganish bo’lib qolgan eski qadrdomim edi, ayrilgim kelmayapti. Agar sizlarga juda kerak bo’lsa...

– Juda kerak-da!

– Nima ham derdim... Faqat oxirgi marta bir chalib, xumordan chiqsam, maylimi? Shu bilan sizlarga ham chalishni o’rgatardim. Rozimisiz?

– Unaqa bo’lsa, mayli, chal. Bir maza qilaylik.

– Bu boshqa gap! – deb quvonibdi nog’orachi. – Mana, bunday chalinadi: «Tam-taka-tum! Tak-kra-tak-tak!» Ha, siz o’ynang!

Ey, nobakorlarning qanday o’yin tushganini ko’rmagansiz-da! Naq bozorning o’rtasida nag’ma ko’rsatayotgan maymoq ayiqqa o’xshab qolishgan edi.

Boshda qaroqchilarga o’yin moyday yoqibdi, hazil-huzul bilan shox tashlab, lapanglay boshladilar:



– Ha, bo‘sh kelma, bopla, azamat!

– O‘yinbopidan bo‘lsin!

– Sho‘xrog‘idan chal! – deb rosa qiyqiribdilar.

Lekin sal o‘tmay halloslab, holdan toyib qolibdilar. Bechoralarning madorlari qurib, oyoqlari tolib qolgan, boshlari gir-gir aylangan, tilsimli nog‘ora esa shafqat qilmay, ularni bat-tar jazavaga solar ekan.

– Dod, yordam beringlar!

– Ha, o‘ynayveringlar!

– Shafqat qil!

– Ha, o‘ynayveringlar!

– Ey, Xudoyim-ey, o‘lib qolaman!

– Ha, o‘ynang, bo‘sh kelmang!

– Bo‘ldi, to‘xtat!

– Yana nog‘oramni tortib olasizmi?..

– O‘zingga buyursin!

– Yana yo‘limni to‘sasizmi?

– Og‘zingga siqqanicha pul so‘ra, baraka top-gur, faqat nog‘orangni to‘xtat!

Lekin nog‘orachi ularni dumalab tushgunla-richa o‘ynataveribdi, faqat sulayib, o‘lar holga kelganlaridagina chalishni bas qilibdi.

– Ana, bu ma‘qul ish! Endi menga yetib bo‘psiz!

Nog‘orachi shunday degancha juftakni rost-labdi-yu, har ehtimolga qarshi, vaqti-vaqti bilan nog‘orasini taqirlatib boraveribdi. Nog‘ora cha-lingan paytlari uyasidagi quyonlar, daraxtlar-dagi olmaxonlar, hatto kuppa-kunduzi uyg‘onib olgan boyo‘g‘lilarning qo‘nib turgan joyida qan-day o‘ynaganlarini bir ko‘rsangiz edi!

Showvoz nog‘orachi shu tariqa uyiga qay-taveribdi.



## BIRINCHI XOTIMA

Nog'orachi yo'l bosib, dovon oshib ketayotganda, birdan o'ylanib qolibdi: «Aytganday, bu tilsim g'aroyib narsa-ku! Nega foydalanmayman! Qaroqchilarga uchraganda ovsarlik qilibman. Bor pulini shilib, cho'ntaklarini qoqlab olmaymanmi! Haliyam bo'lsa, orqaga qaytib, ularni topsammikan?»

Nog'orachi shu niyatda ortiga qayrilsa, to'ppa-to'g'ri unga qarab bir pochta aravasi kelayotgan emish!

– Bo'rini yo'qlasang qulog'i ko'rinadi. O'lja ham o'z oyog'i bilan kelyapti-ya!

Otlar dukur-dukur chopadi, bo'yinlaridagi qo'ng'iroqlari jingir-jingir qiladi, aravakash esa o'zi chalayotgan hushtakka mast, yonida bitta mirshab ham qo'nqayib o'tirgan ekan.

– Salom, nog'orachi! Charchadingmi, chiq aravaga!

– Yo'q, menga shu yer ham tuzuk.

– Unda, yo'ldan qoch, o'tib ketaylik.

– Avval bir o'ynaysiz, keyin o'tasiz...

Nog'ora shu zahoti «Tam-taka-tuk! Tak-kra-tak-tak!» deb sayrab beribdi. Shu lahzada otlar raqsga tushib, aravakash yerga sakrab, o'yin boshlanib ketibdi. Miltig'ini uloqtirib, mirshab ham qiypanglabdi. Aravadagi yo'lovchilar ham chiday olmay, o'yinga qo'shilibdilar. Xullas, bir zo'r o'yin, ajoyib ko'ngilxushlik boshlanibdi.

Endi, sizga aytsam, pochta aravasida bankka topshirish uchun uch quti tilla olib borilayotgan ekan. Har qutida yuz kilo bo'lsa, hammasi





uch yuz kilocha kelar-ov. Askar shovvoz o'ng qo'li bilan nog'orasini chalib, chap qo'li bilan qutilarni yerga tushiribdi-da, oyog'i bilan butalar panasiga surib qo'yaveribdi.

– O'ynanglar, ha, o'ynanglar!

– Bo'ldi, to'xtat, o'ldirib qo'yasan-ku!

– Unda, jo'nanglar! Tezroq! Agar orqaga qarasangiz...

Pochta aravasi jo'nab qolibdi. Nog'orachi uch quti tillaga ega chiqib, millionerdan ham boy bo'libdi. Endi, xohlasa, katta hovli sotib olib, yallo qilib yashasa ham, biron-bir amaldorning qiziga uylansa ham bo'ladi. Agar yana pul desa, bankka borishi shart emas – nog'orasini qo'lga olsa, bas.

## **IKKINCHI XOTIMA**

Nog'orachi yo'l bosib, dovon oshib ketayotganda, bir maynaga miltiq to'g'rilab turgan ovchiga duch kelib qolibdi.

«Tam-taka-tuk. Tak-kra-tak-tak!»

– Badbaxt, ko'zingga ko'rsatib qo'yaman.

– O'ynayver-chi, bir gap bo'lar... Xo'sh, qalaysan?

– Uh, sillam quridi.

– O'lib qolmay, desang, bundan keyin parandalarni otmayman, deb qasam ich.

– Otsam – qasam ursin.

Nog'orachi yo'l bosib, dovon oshib ketayotib, eshagini kaltaklayotgan bir dehqonni ko'rib qolibdi.

– O'yna.



- Rahm qil.
- O'yna. Endi eshagimni sira savalamayman, deb qasam ichsang, nog'oramni to'xtataman.
- Ursam – qasam ursin.

Showvoz nog'orachi shu tariqa yo'l bosib, dovon oshib, har zamonda haqsizlikni tugatish, nobakorlarning jazosini berish uchun nog'orasini sayratib ketaveribdi. Negadir bunaqa haqsizlig-u turli-tuman nobakorlar ham ko'p ekan, nog'orachi shularni tugatishga ovo-ra bo'lib, sira uyiga yetolmabdi. Lekin o'zi bunga xafa emas, «Qayerdagi nog'oram bilan adolat o'rnatsam, o'sha yer menga uyda», deb xur-sand yurar emish.

### **UCHINCHI XOTIMA**

Nog'orachi yo'l bosib, dovon oshib ketayo-tib, o'ylab qolibdi: «G'alati nog'ora-ya! Qanday yasalgan ekan? Tilsimi qayerida ekan?»

Nog'oracho'pni qo'liga olib xo'p zehn solsa ham sirini topolmabdi – oddiy cho'p ekan.

– Balki tilsimi ichida, manavi tarang tortilgan terisining tagidadir? Qarab ko'ray-chi! – Nog'orachi shu niyatda qalamtarosh bilan nog'oraning qornidan bir teshik ochibdi. Teshikka ko'z solsa, nog'oraning ichi ham bo'm-bo'sh ekan.

– Mayli, endi bo'lar ish bo'ldi...

Nog'orachi askar shunday deb yana yo'lga tushib, dovon oshib ketaveribdi. Lekin endi nog'ora kuyiga olmaxonlar, quyonlar, qushlar boshqa o'ynamas, boyo'g'li ham uyqusini buzib o'tirmas emish...



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/uz/asar/4141> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/4141> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию  
можно найти на сайте  
<https://kitobxon.com/ru/asar/4141>